

LEGAL
SCIENCES.UZ

**YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI**

2-JILD | 1-SON

2026

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

2-jild 1-son 2026-yil

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Amirov Zafar Aktamovich — yuridik fanlar doktori

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Imomov Nurillo Fayzullayevich

Yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: nurillo_1212@mail.ru

Hakimov Komil Baxtiyarovich

Yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Matkarimov Kudrat Kalandarovich

Yuridik fanlar doktori, dotsent
Email: qudrat1979uzb@gmail.com

Umarxanova Dildora Sharipxanovna

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-3492-010X

Fazilov Farhod Maratovich

Yuridik fanlar doktori (DSc), professor
ORCID: 0000-0001-8603-1948

Kadirova Moxigul Xamitovna

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0000-0003-1450-7542

Pirmatov Otabek Shavkatovich

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0000-0002-0774-661X

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Boymurodov Botir Panji o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0009-0003-7377-3995

Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
ORCID: 0000-0002-9873-6061

Nodirov Muzaffar Axmad o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0000-0003-3733-2554

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0000-0002-9867-3363

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 1-son (fevral, 2026). - 42 bet.

MUNDARIJA

<i>Turdiyev Bexruz</i> HUQUQIY NIGILIZM FENOMENI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	5-8
<i>Ergashev Ikrom</i> SOLIQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOGBARLIK	9-17
<i>Rahmatov Elyor</i> BOJXONA NAZORATINI PROTSESSUAL SHAKLDA TASHKIL ETISHDA BOJXONA ORGANLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI	18-24
<i>Hakimov Komil</i> IJTIMOIY XAVFLI QILMISHNI SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISHGA DOIR AYRIM MASALALAR	25-29
<i>Niyozova Salomat</i> KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN KRIMINOLOGIK CHORA-TADBIRLAR VA MEXANIZMLAR	30-36
<i>Nodirov Muzaffar</i> JINOYAT SUDLOVI TIZIMIDA YUVENAL YUSTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	37-41

Article / Original Paper

JINOYAT SUDLOVI TIZIMIDA YUVENAL YUSTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Nodirov Muzaffar Axmad o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani o'rinbosari

E-mail: muzaf89@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessiga yuvenal yustitsiyani joriy qilish masalalari o'rganilgan. Yuvenal yustitsiya tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi ilg'or tajribasi tahlili asosida ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, yuvenal yustitsiya, milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, anglo-sakson model, kontinental model, skandinav model, yuvenal sudya.

IMPROVING JUVENILE JUSTICE MECHANISMS WITHIN THE CRIMINAL JUSTICE SYSTEM

Nodirov Muzaffar

Deputy dean of faculty of Criminal Justice

of Tashkent state university of Law

Annotation. This article examines the issues of the implementation of juvenile justice in the criminal proceedings of the Republic of Uzbekistan. The author's definition of the concept of "juvenile justice" is stated. As well as, based on the analysis of the best practices of foreign countries in this sphere, appropriate scientifically grounded proposals have been drafted out.

Keywords: juvenile, juvenile justice, national enforcement, Anglo-Saxon model, continental model, Scandinavian model, juvenile judge.

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishga doir xalqaro standartlarni amalga oshirish zaruriyati huquqni tiklovchi odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan jinoyat-protsessual shakllarni joriy etish, xususan, voyaga yetmagan shaxsning g'ayriqonuniy xulq-atvoriga munosabat bildirishda ushbu shaxsni "jazolash"dan ko'ra "uning manfaatlarini himoya qilish, qayta tarbiyalash va ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish" yondashuvini qo'llashni taqozo etmoqda.

Jumladan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 40-moddasida jinoyat qonunini buzishda ayblanayotgan har bir voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ushbu shaxsning yoshi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatda foydali o'ringa ega bo'lishiga xayrixohlikni e'tiborga olgan holda, uning qadr-qimmat tuyg'usi rivojlanishiga turtki bo'ladigan, unda inson huquqlari va uchinchi shaxslar erkinligiga hurmat bilan munosabatda bo'lishini kuchaytiradigan tarzda muomala qilinishi zarurligi belgilangan. Ya'ni, voyaga yetmagan shaxslarning yosh xususiyati, ruhiy-aqliy rivojlanish darajasi kabi omillardan kelib chiqqan holda, ushbu toifa shaxslarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda alohida sudlov tizimidan foydalanishlari lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarga mo'ljallangan bunday maxsus sudlov tizimi sifatida yuvenal yustitsiya namoyon bo'ladi.

V.G.Prosvirning fikricha yuvenal yustitsiya ijro va sud hokimiyati organlarining voyaga yetmaganlarning farovonligi, huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan voyaga yetmaganlarni odil sudlov tizimidan chiqarish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish, jinoyat protsessidagi alohida faoliyati sifatida ta'riflash mumkin [1].

Boshqa bir guruh olimlar fikricha, yuvenal yustitsiya maxsus yuvenal sudlar instituti atrofida birlashgan voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga, shu jumladan, jabrlanuvchi bilan yarashish va keyingi rehabilitatsiyada ko'maklashishga mo'ljallangan, davlat va nodavlat tashkilotlari tizimiga kiruvchi huquqiy mexanizmlar va institutlar, tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik va rehabilitatsion jarayonlar va dasturlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi [2].

N.V.Spesivov yuvenal yustitsiyani voyaga yetmaganlar huquqlari himoyasini ta'minlovchi, ularga ijtimoiy-ruhiy yordam ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va tuzilmalar bilan uzviy aloqadorlikda, yuvenal texnologiyalarni qo'llagan holda faoliyat ko'rsatuvchi, asosiy funksiyasi jinoyat protsessi voyaga yetmagan ishtirokchilarining huquqlarini ta'minlashga, voyaga yetmaganlar rehabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi, ular tomonidan takroriy jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularning qonuniy manfaatlarining himoyasiga qaratilgan maxsus sud tarkiblari va tergov organlarini o'z ichiga oluvchi, voyaga yetmaganlarga nisbatan sudga qadar va sud muhokamasida alohida ish yurituv tizimi sifatida qayd etgan [3].

Demak, yuvenal yustitsiya deganda voyaga yetmaganlarga doir ish yurituvchi maxsus yuvenal sudlar bilangina cheklanib qolmaydi. Yuvenal yustitsiya – bu, eng avvalo, maxsus tegishli qonunchilikni, shuningdek asosiy vazifasi voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lgan, voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshiruvchi, ushbu toifa shaxslar huquqbuzarligiga munosabat bildiruvchi davlat va boshqa organlar hamda tashkilotlarni o'z ichiga oluvchi tizim hisoblanadi.

Ma'lumki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi butun dunyo miqyosidagi muammo hisoblanadi. Shunga ko'ra, ayrim xorijiy mamlakatlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashda erishilgan muvaffaqiyatli amaliyot mamlakatimizda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Shu jihatdan quyida yuvenal yustitsiyaning keng tarqalgan zamonaviy ayrim modellari xususida to'xtalib o'tamiz.

Voyaga yetmaganlarga doir jinoyat ishlarining sudlovga tegishliligining o'ziga xos xususiyatlari, huquqni qo'llash amaliyoti, bu toifa ishlarni ko'rib chiqishning protsessual jihatlari kabi mezonlar asosida yuvenal yustitsiyaning quyidagi uch modelini ajratib ko'rsatish mumkin:

- anglo-sakson;
- kontinental;
- skandinav model.

Bir guruh olimlarning ilmiy ishlarida yuvenal yustitsiyaning, shuningdek, ijtimoiy, jazolovchi, shartnomaviy, korporativ, nazorat qiluvchi, huquqni tiklovchi, minimal intervension, neo-korreksion, huquqni muhofaza qiluvchi, situatsion kabi modellari ham qayd etilgan [4].

Yuvenal yustitsiyaning anglo-sakson modelida yuvenal sudlar voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgandagina jazo berilgan mayda huquqbuzarlikni nazarda tutuvchi "status jinoyatlar"ga doir ishlarni ko'rib chiqadi. O'z navbatida, voyaga yetgan shaxslar status jinoyatlarni sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilmaydilar va jazolanmaydilar [5].

AQSh sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rib chiqishda har bir bosqichda voyaga yetmaganlarni rasmiy ish yurituvga jalb etish yoki uni sud va boshqa protsessual ish yurituvdan chiqarish masalasi ko'rib chiqiladi. Ishni sudda yoki suddan tashqari jarayonlar orqali ko'rib chiqish, voyaga yetmagan shaxsni hibsga olish yoki uni ozod qilish kabi masalalar bevosita sudya tomonidan hal qilinadi. Sud voyaga yetmagan huquqbuzar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xizmatlarning profilaktik, pedagogik ishi ustidan nazorat olib boradi [6].

Kontinental yuvenal yustitsiya modeli Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Polsha, Portugaliya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlarda amal qiladi.

Jumladan, Fransiyada umumiy sudlar tizimida ixtisoslashgan tuzilmalar sifatida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha adliya muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu sudlarda voyaga yetmagan huquqbuzarning individual xususiyatlari e'tiborga olinib, tarbiyaviy ta'sir choralariga ustuvorlik beriladi. Fransiyada voyaga yetmaganlarga doir jinoyat ishlari shuningdek 3 nafar professional sudya va 9 nafar sudyadan tarkib topgan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hakamlik sudlari tomonidan ham ko'rib chiqiladi. Ushbu sud 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga doir, shuningdek, katta yoshdagi shaxslar bilan ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rib chiqishga vakolatli [7].

Germaniyada voyaga yetmaganlarga doir ishlar yuvenal sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunday sudlar garchi umum-jinoiy sudlar tizimidagi alohida bo'linmalar bo'lsa-da, o'z normativ-huquqiy bazasi, jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvning maxsus prinsiplari, ixtisoslashgan sudlovga tegishlilik, sudlarning alohida tuzilmasi va tarkibiga ega bo'lganligi bois umumyurisdiksiya sudlaridan tamomila mustaqil hisoblanadilar [8].

Italiyada yuvenal sudlar professional sudyalar va ularga ko'maklashuvchi sud maslahatchilaridan tarkib topgan. Sud maslahatchilari pedagogika, psixologiya, kriminologiya, sotsiologiya, psixiatriya, meditsina kabi sohalarida voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislar orasidan tanlanadi [9].

Yuvenal yustitsiyaning skandinav modelida (Shvetsiya, Finlyandiya) voyaga yetmaganlarga doir jinoyat ishlarini ko'ruvchi alohida sudlar mavjud bo'lmaydi. Ushbu modelning o'ziga xosligi voyaga yetmagan huquqbuzarga nisbatan sudga qadar ish yurituvda va sud muhokamasida ijtimoiy xodimning faol ishtirokida namoyon bo'ladi.

Demak, yuvenal yustitsiyaning yuqoridagi modellari tahlili asosida ushbu modellarning barchasiga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituv ishtirokchilarining ixtisoslashganligi;

2) ishlarni ko'rib chiqishda ijtimoiy xodimlar, pedagog va psixologlarning ishtirok etishi;

3) tarbiyaviy ta'sir choralarining keng qo'llanilishi;

4) voyaga yetmagan shaxsning jamiyatga qaytishi, ijtimoiy moslashuviga katta ahamiyat berilishi, ya'ni voyaga yetmagan shaxsga dastlab noprotsessual ta'sir choralari qo'llaniladi va ular yetarlicha samara bermagan taqdirdagina rasmiy ish yurituvga kirishiladi.

O'zbekiston Respublikasida yuvenal yustitsiya mavjud bo'lmasa-da, yuqorida qayd etilgan modellarga xos: sudlar tomonidan voyaga yetmaganlarga doir ishlarni ko'rishda va

tegishli chorani qo'llashda voyaga yetmaganning shaxsi, turmush sharoitlari o'rganilishi, protsessda psixolog, pedagoglar jalb etilishi, ishlarni ko'rishda "jazolash" emas, balki "tarbiyalash" elementlarining ustuvorligi kabi jihatlar mavjudligini alohida qayd etish lozim. Bu esa mamlakatimiz milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti yuvenal yustitsiya muayyan belgilariga ega ekanligidan dalolat beradi hamda kelgusida O'zbekiston Respublikasida yuvenal yustitsiyani joriy etishda yaqindan ko'mak beradi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha alohida sudlar ta'sis etish ko'p vaqt va mablag' talab etuvchi jarayon ekanligini inobatga olgan holda, dastlabki bosqichda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha alohida sudlar emas, balki jinoyat ishlari bo'yicha umumiy yurisdiksiya sudlari tarkibida voyaga yetmaganlarga doir jinoyat ishlarini ko'ruvchi ixtisoslashgan sudyalarni ta'sis etish orqali bu muammoni hal qilish mumkin.

Shuni alohida qayd etish joizki, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha sudlarni tashkil etish va samarali faoliyat yuritishining zaruriy sharti bu ushbu tuzilmalarda sudyalarning nafaqat huquq masalalarida, balki pedagogika, sotsiologiya va psixologiya kabi sohalarda ham yuqori saviyaga ega bo'lishiga ham bevosita bog'liq. Shu jihatdan, kelgusida ushbu tuzilmalar uchun bunday talablarga to'la javob beradigan kadrlarni yetishtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi yuridik oliy ta'lim muassasalarida "yuvenal yustitsiya" ixtisosligi bo'yicha dasturlarni, o'z navbatida sudyalarni tayyorlash dasturlariga "yuvenal sudya" ixtisosligini kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Yuvenal shakllantirish va rivojlantirishda "Yuvenal yustitsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda yuvenal qonunchilikda foydalaniladigan asosiy atamalar va tushunchalar, ushbu sohadagi faoliyatga jalb etiluvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning vakolatlari va funksiyalari, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topadi.

Yuvenal yustitsiyaga doir yuqorida o'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, ushbu sohadagi milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- voyaga yetmagan shaxslar ishtirokida yuzaga keluvchi huquqiy ziddiyatlarni hal etish va jinoyatlarga munosabat bildirishning an'anaviy usullariga muqobillarni rivojlantirish;
- ushbu yondashuvlarda huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash, axloqan tuzatish va ijtimoiy moslashuvi mexanizmlarini ishlab chiqish (ya'ni jazo tayinlanmayotgan, intervensiya mexanizmlarini qo'llagan holda rasmiy ish yurituvdan olib chiqilayotgan voyaga yetmagan huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash usul va vositalarini ishlab chiqish);
- jabrlanuvchilar manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- huquqiy nizo tomonlari o'rtasida konsensusga (kelishuv) erishish choralari ko'rish;
- nizoni sudga qadar hal qilish, restitutsion jarayonlar hamda huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoat institutlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish.

Shunday qilib, yuvenal yustitsiya tizimi aniq bir holatda voyaga yetmagan huquqbuzarning va jabrlanuvchining muammolarini hal etishga qaratilgan bo'ladi. Bunday sudlarning asosiy g'oyasi huquqbuzar voyaga yetmagan shaxslarga kechirimli bo'lishda emas, balki uning g'ayriqonuniy xulq-atvori sabablarini aniqlash va u tomonidan kelgusida yana jinoyat sodir etilishining oldini olishning samarali usullarini topishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida yuvenal yustitsiya tizimini yaratish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

1) voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishga doir amaldagi qonunchilik normalarini takomillashtirish, xususan ularni ushbu sohadagi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish (amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga sudyalar ixtisoslashuviga oid va boshqa tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, "Yuvenal yustitsiya to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish va boshq.);

2) yuvenal yustitsiya to'g'risidagi qonunchilikni amalda qo'llash mexanizmlarini ta'minlash (kadrlarning malakaviy moslashuvi va axborot-uslubiy ta'minoti, alohida hududlarda yuvenal yustitsiyaning muayyan elementlarini eksperimental tarzda joriy etish, natijalarni umumlashtirish va tahlil etish);

3) yuvenal yustitsiya instituti (jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tarkibida voyaga yetmaganlar jinoyat ishlari bo'yicha ixtisoslashgan sudlar yoki ixtisoslashgan sudyalar va sud hay'atlari) va voyaga yetmaganlarni himoya qilish yuvenal tizimining asosiy elementlarini (yuvenal advokatura, ijtimoiy muassasalar va ijtimoiy xodimlar institutini) yaratish;

4) voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yurituvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, advokat va boshqa mutaxassislarining nafaqat huquq masalalarida, balki pedagogika, sotsiologiya, psixologiya kabi sohalarda ham lozim darajadagi kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

5) yuvenal yustitsiya tizimiga kiruvchi organlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Просвирнин В.Г. О современном понимании ювенальной юстиции. Вестник ВГУ. Серия: Право. 2013 №2 – С.182.
2. Арпентева М.Р. Вопросы ювенальной юстиции «Наука. Мысл: электронный периодический журнал». Научный журнал. № 5-1. – 2016. – С.13.; Абызов Р.М., Фризен П.Д. Ювенальная юстиция на защите прав несовершеннолетних // Актуальные проблемы борьбы с преступлениями и иными правонарушениями. – 2013. – № 11-1. – С.3-7.
3. Беженцев А.А. Ювенальная юстиция: зарубежный опыт и перспективы его использования в России. Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. №1 (77) 2018. – С.61.
4. Рухлова В.В. Основные проблемы и перспективы развития ювенальной юстиции в Российской Федерации // Социально-педагогическая деятельность в социуме: теория, практика, перспективы. – 2014. – С.222-223.
5. Шестаков К.А. и др. Ювенальная Юстиция: сут проекта. — М.: Концептуал, 2011. – С.100.
6. Шестаков К.А. и др. Ювенальная Юстиция: сут проекта. — М.: Концептуал, 2011. – С.100.
7. Шупыра Ю.В. О внедрении ювенальных технологий в суды общей юрисдикции в Республике Бурятия // Ювенальная юстиция и проблемы защиты прав несовершеннолетних: материалы III Междунар. на-уч.-практ. конф. (16-18 сент. 2011 г.) // науч. ред. Э.Л. Раднаева. – Улан-Удэ: Изд-во Бурят. гос. ун-та, 2012. – С.256.
8. Спесивов Н.В. Международные стандарты осуществления уголовного судопроизводства с участием несовершеннолетних и их реализация в современном российском уголовном процессе. Дисс. канд. юр. Наук. – Саратов, 2015. – С.100-101.
9. Cavadino M., Dignan P. Penal Systems: A Comparative Approach. London: Sage Publications, 2006. – P.380.

LEGALSCIENCES.UZ

2-jild 1-son 2026-yil

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”

mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).